



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Gulnara Eshchanova

MTTDMQTMOI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

ZAMONAVIY O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FANI O'QITUVCHISINING KASBIY STANDARTI VA KOMPETENSIYASI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisining kasbiy standarti va kompetensiyasi haqidagi mulohazalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: internet forum, konferensiya, video-audio manba, arxaik vositalar.

Bugungi axborotlar asrida o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi o'zining pedagogik faoliyati faqatgina ta'lif diplomi bilan tugamasligini anglab yetshi lozim. O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisining pedagogik faoliyati juda murakkab jarayon bo'lib, u tinimsiz izlanishni va o'z ustida faol ish olib borishni talab etadi. "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunda davlat ta'lif standartlari keltirilgan ushu standart va yuqoridagi talablarga tayangan holda biz zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisining kasbiy standart talablari qanday bo'lishi lozim, degan savolga javob izlashga harakat qildik. O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi o'quvchilarining fikrashi va nutqini shakllantirishi, milliy madaniyatni o'zlashtirish darajasi hamda fuqarolik identifikatsiyasini o'zlashtirishlariga ko'maklashishi zarur deb bildik.

Zamonaviy dunyoda kommunikatsiya an'anaviy va arxaik vositalar (imo-ishora, raqs, ovozli modulyatsiya) bilan birga AKT asosidagi gipermediya, ya'ni matn tizimi, tovushli narsalar va aloqalar, ular orasidagi bog'lanishlar asosida amalga oshmoqda.

Hozirgi vaqtda bolalar va o'qituvchi uchun xabar, qoida tariqasida, gipermediyadir: obyekt va uning ekrani, video-audio manbalari va inson ishtirok etishi mumkin bo'lgan asboblardan foydalanish ko'nikma va malakalariga egaligini inobatga oladigan bo'lsak, o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisining kasbiy standarti va kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar ham mos ravishda o'zgarishi zarur. Bugungi o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi kasbiy standarti, o'rganish uchun motivatsiyani oshiradi va lingvistik madaniyatni shakllantiradi. Shularni inobatga olsak u quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi talab etiladi:

- hayotiy jarayonning muhum vosbtasi bo'lgan muloqotda o'quvchilarning hissiy va oqilona ehtiyojlarini shakllanishini rag'batlantirish;
- o'quvchilarning fikrlash tarzini imkon qadar keng doirada, shu jumladan gipermedia formatida amalga oshirish;
- o'quvchilarning biror bir voqeа, hodisa haqidagi xabarlarini (sayohat haqidagi hikoya, oilaviy hayotdagi voqeа, o'yin va h.k), ularning tuzilishini, ishlatilgan til vositalarini tahlil qilib rag'batlantirish;
- o'quvchilarga xabarni tushunish usullarini o'rgatish: tahlil qilish, tuzilish, qayta tashkil etish, o'zgartirish, boshqa xabarlar bilan taqqoslash, tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash;
- qaror qabul qilish va nizolarni hal qilishni talab qiladigan masalalar bo'yicha og'zaki va yozma munozaralarni tashkil etish orqali muloqot madaniyatini shakllantirish. Maktab konferentsiyalari va boshqa forumlarda, shu jumladan internet-forumlarda va konferentsiyalarda munozaralarda qatnashishni rag'batlantirish orqali o'quvchilar uchun ijtimoiy nutqni tashkil etish;
- o'quvchilar bilan badiiy va ilmiy nasr va nazm, jurnalistika, sud amaliyoti, reklama va hokazolarning eng yaxshi asarlari namunalarini muhokama qilish. Shaxsiy va jamoaviy adabiy ijodni rag'batlantirish, adabiy modellarga uslubiy rivoja qilishni tarbiyalash;
- teatrlashtirilgan tomoshalarda o'quvchilarning ishtirokini rag'batlantirish, animatsiya va boshqa video mahsulotlarni, qisqa merajli filimlar dublyajini yaratishni rag'batlantirish;
- o'quvcilar bilan birgalikda lingvistik voqelikdagi o'zgarishlarni va jamiyatning ularga bo'lgan munosabatini topish va muhokama qilish. O'quvchlarga "o'zgaruvchan til hissi"ni berish;
- o'quvchilar bilan birgalikda amaliy yoki kognitiv muammolarni hal qilishda lingvistik ma'lumotlar manbalaridan, xususan etimologik ma'lumotlardan foydalanish, tilni o'rganishning ilmiy uslubi bilan "kundalik" ("xalq tilshunosligi") yondashuvidan farqlarini ta'kidlash;
- o'quvchilarning nutqiy madaniyatini shakllantirish, mahalliy va milliy til meyorlari, qisqa matnli xabarlarga xos axborot madaniyati telekommunikatsiyalardan foydalanish va internet manbalari bilan ishlashning o'zaro farqlarini bilishi va bu boradagi bilinlarini muttasil oshirib borishi;

- kundalik hayotdagи lingvistik holatlar: internet tili, submulturalar tili, ommaviy axborot vositalari tili, so‘zлarni axloqiy va estetik baholash;
- avtomatlashtirilgan tarjima va ovozni kuchaytirish vositalaridan foydalangan holda axborot manbalaridan (internetda va hokazo), shu jumladan chet tillaridan foydalana olish;
- faol malakali doimiy o‘quvchi va tomoshabin bo‘lish (adabiy davriy nashrlar, adabiyot, kino va teatr yangiliklari);
- kommunikativ kompetentsiya xodimning asosiy sifati bo‘lgan kasbiy faoliyat turlarini, shu jumladan manfaatdor talabalarni (maktab gazetasi, badiiy yoki ilmiy almanaxni nashr etish, maktab radiosi va televideniyasini tashkil qilish, teatr tomoshasi yoki videofilm uchun ssenariy ishlab chiqish va h.k.);
- o‘quvchilarda havolalar, iqtiboslar, taqqoslashlar, muallif bilan suhbat, mualliflik huquqining buzilishiga va plagiatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, o‘quvchilarni ushbu axloqiy va huquqiy buzilishlarni aniqlashning zamonaviy usullari bilan tanishtirish;
- erishilgan natijalarni (uning ishini tahlil qilish asosida, axborot muhitida qayd etilgan) va ularning dinamikasini, qiyinchiliklar va to‘siqlarni aniqlashni, ularni yengib o‘tish haqidagi farazlarni shakllantirish va sinovdan o‘tkazishni o‘quvchi bilan birgalikda aniqlash (diagnostika); alohida ish natijasini, holatini (oldingisiga nisbatan) ko‘p mezonli baholash va bu haqda o‘quvchini xabardor qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston respublikasining qonuni “Ta’lim to‘g‘risida” <https://lex.uz/docs/5013007>.